



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Жауапты редакторлар:
Шуһрат СИРОЖИДДИНОВ,

Филология ғылымдарының докторы, академик
Әлішер Науаи атындағы Ташкент мемлекеттік өзбек тілі мен
әдебиеті университетінің ректоры

Қанат БАЙБОЛОВ,

Жұмабек Ахметұлы Тәшенев атындағы университет ректоры,
техника ғылымдарының докторы, профессор

Боқижон Тохлиев (Өзбекстан), Нурбой Жабборов (Өзбекстан),
Парида Байнеева (Қазақстан), Кемал Явуз Атаман (Түркия), Яшар Қасым
(Әзербайжан), Ислам Джеменей (Қазақстан), Фарход Рахимий (Иран),
Шолпан Арзымбетова (Қазақстан), Каромат Муллахожаева (Өзбекстан),
Жанна Ботабаева (Қазақстан), Бахтиёр Файзуллаев (Тәжікстан),
Дильнавоз Юсупова (Өзбекстан), Нозлия Нормуродова (Өзбекстан), Шахло
Наралиева (Қазақстан), Илёс Исмаилов (Өзбекстан), Азизулла Арал
(Афғулхан), Орзігүл Хамроева (Өзбекстан), Озода Тожибаева (Өзбекстан)

Бұл жинақта «Әлішер Науаи және 21 ғасыр» тақырыбындағы 10-шы
халықаралық конференция материалдары жинақталған. Жинаққа Әлішер
Науаидың әдеби-ғылыми мұрасының классикалық әдебиетіміздегі орны
мен оның бүгінгі күндегі маңызы туралы, сонымен қатар, ақын
шығармашылығына қатысты мәтінтану және тіл білімінің мәселелеріне
арналған ғылыми мақалалар енгізілген. Науаитану ғылымының
маңыздылығын айқындайтын факторлардың бірі – осы саланың қазіргі
жағдайы мен келешегі туралы нақты пайымдаулар беруі. Кітап
филологтарға, ғылыми зерттеушілерге, магистранттар мен студенттерге,
жалпы оқырман қауымға арналған.

*Авторлардың көзқарастары мен шығармалардың атауларының
емлесі редакциялық тұрғыдан өзгеше болуы мүмкін.*

**Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature**

**Republic of Kazakhstan Zhumabek
Tashenev University**

**The Proceedings of the International
Scientific-Theoretical Conference**

«ALISHER NAVO'I AND THE 21st CENTURY»

6 February 2025

Tashkent – Shymkent – 2025

Chief editor:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

Doctor of Philological Sciences, Professor,
Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of
Uzbek Language and Literature

Kanat BAYBOLOV

Doctor of Technical Sciences, Professor,
Rector of the University named after Tashenev Zhumabek Akhmetuly

Editorial Board:

Bakijon Tuxhliev (Uzbekistan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Parida Bayneeva (Kazakhstan), Kemal Yavuz Ataman (Turkey), Yashar Qasim (Azerbaijan), Islam Jemeney (Kazakhstan), Farhod Rahimiy (Iran), Sholpan Arzimbetova (Kazakhstan), Karomat Mullakhojayeva (Uzbekistan), Janna Botabaeva (Kazakhstan), Bakhtiyor Fayzullayev (Tajikistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Shahlo Naraliev (Kazakhstan), Ilyos Ismoilov (Uzbekistan), Azizullah Aral (Afghanistan), Orzigul Hamroeva (Uzbekistan), Ozoda Tojiboeva (Uzbekistan)

These are the proceedings of articles submitted to the 10th International Scientific Theoretical Conference entitled "Alisher Navo'i and 21st Century". The digest comprises scholarly articles that critically examine the position and significance of Alisher Navo'i's literary and intellectual heritage within the framework of classical literature, emphasizing its enduring relevance in contemporary discourse. Furthermore, it presents rigorous analyses of textual studies and linguistic phenomena related to the poet's works, offering a comprehensive exploration of philological, historical, and methodological aspects. By addressing both current trends and future directions in Navo'i studies, this compilation serves as a significant academic resource for advancing research in the field.

The orthography of authors' and their interpretations of works may differ from the view point of editorial board.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RANG-TUS IFODALOVCHI BIRLIKLAR

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna

filologiya fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti

Turkiy olamning ma'naviy dunyosi shakllanishiga kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' allomalardan biri hazrat mir Alisher Navoiy ekanligi aksioma darajasidagi haqiqatdir. Bugun uning nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy ijod dahosi zamon va chegara bilmasligi ham faqat turkiylar uchungina emas, dunyo ahliga ayon.

Hazrat mir Alisher Navoiy asarlarida rang-tus sifatlari o'ziga xos tarzda qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, "Xamsa" tarkibida turuvchi "Sabbayi sayyor" dostonining XXI qismi boshlanishida shunday izoh bor:

*Yakshanba kuni Bahromning quyoshdek **zarbaft** libos kiyib, **gunbadi** zarnigorg'a azm qilib, sariq' hullalig' hur bila bazmi aysh tuzub, **oltun** sog'arda **asfar** may ichgoni, yo'qkim, quyoshning **sariq'** guli ochilg'oni chog'din oftob zardig'acha anga bir yilcha kechgoni* [Navoiy, 2011: 469].

Keltirilgan parchada *sariq* rangi ma'nosini *zarbaft*, *gunbadi*, *oltun*, *asfar*, *zard* so'zlari orqali ham ifodalaydi. Bu o'rinda *zarbaft* (zardo'zi) forsiy so'z bo'lib, ya'ni *sariq* rangdagi zar ip bilan tikilgan zarrang (to'n), ya'ni *sariq* (libos) ma'nosini beradi. Siradagi *gunbadi*, *oltun*, *zard* so'zlari ham, odatda, *sariq* rang ma'nosini beruvchi variant birliklardir. Shu o'rinda *gunbadi* so'zi ma'nosiga e'tibor qarataylik. Shoir "Xamsat ul-mutahayyiryn" asarida Abdurrahmon Jomiy vasfni bayon qilib quyidagi misralarni keltiradi:

*Kim **gunbadi** gardandayi oliy bunyod,
To davrida ta'jilg'a bo'lg'ay mo'tod,
Odamki bo'lub xalifa yoydi avlod,
Avlodida bir uyla xalaf bermas yod.*

Ya'ni, (Yaratgan tomonidan) oliy holda bunyod qilingan (buni inson zoti qo'li bilan yarata olmaydi) aylanib turuvchi gumbaz (ya'ni quyosh), Toki falakda shoshilishga odat qilib aylanar ekan (ya'ni bu yorug' olamda tiriklik bor ekan), Odam Yaratganning yerdagi xalifasi (odam ongli mavjudot sifatida Yaratganning yerdagi tajallisi) bo'lib shu qadar zurriyot yoydiki, Avlodida Jomiy kabi zurriyoti bo'lganligini yod qila olmaydi (ya'ni, insoniyat inson farzandlari orasida Jomiydek ulug' zot o'tganini to'la his etmaydi).

Demak, Abdurrahmon Jomiy vasfi keltirilgan mazkur she'rning birinchi misrasida ishlatilgan *gunbadi* so'zi aylanib turuvchi gumbaz, ya'ni quyosh ma'nosida qo'llanilgan. Quyoshning nurlari, odatda, *sariq* rangda bo'lganligini hisobga olsak, yuqoridagi parchada ham *gunbadi* so'zi predmet nomi sifatida emas, *sariq* rang ma'nosida qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Siradagi *asfar* (اصفر) arabcha so'z bo'lib, *sariq* demakdir. Shuningdek, *asfar* Sudan(Sharqiy Afrika)dagi (Nil daryosining o'ng irmog'i hisoblangan (uzoqdan *sariq* rangda ko'rinuvchi) daryo nomi; musulmon xalqlarida *sariq* rangli bo'lib tug'ilgan o'g'il bolalarga qo'yiladigan ism ham hisoblanadi.

Alxusus, shoir birgina parchada *sariq'* dominantasi atrofida shu rang ma'nosini beruvchi *zarbaft*, *gunbadi*, *oltun*, *asfar*, *zard* kabi beshta variantni qo'llaydi.

Shoir asarlarida qizil rangni bildiruvchi soʻzlar miqdori 15 tadan ortiqqligini kuzatamiz, jumladan, shu rang nomini beruvchi paradigmadan **ol, surxr, ahmar, shingarf, lavn, alvon, humrat, rangi noriy, laʼl, baxrom, shafaqrang, gulnoriy, yoqut, may** kabi birliklar oʻrin olgan.

Buni “Sabbayi sayyor” dostonining XXIII qismida boshlanishidagi izohdan kuzatamiz: *Bu bob seshanba kuni Bahromning **gulnoriy** qasrda oʻtkazgan kun haqida, Sarlavhada qizil rangni anglatuvchn soʻzlar birikmasidan mohirona foydalanilgan: **gulrang** libos, **gulnoriy** qasr, **shafaqrang** libosli quyosh (goʻzal), **yoqutrang** qadah, **yoqut-u laʼl** dori, **may** kabi soʻzlardan qizillik maʼnosini ifodalovchi tanosub sanʼati qoʻllanilgan* [Navoiy, 2011: 472].

Yana bir misol.

*Koʻzum qizardi, **qizil** ashk rangidin garchi*

Qizil** boʻlur su-yu, boʻlmas anga hubob **qizil [Navoiy, 2006: 229].

Oshiqning koʻz yoshlari qon (qizil rangda) boʻlib oqyaptiki, uning koʻzlari qizarishi shundan.

Baytda qizil soʻzi shu rang maʼnosini beruvchi paradigmada dominanta boʻlib keladi va ifodalanayotgan mazmunga nisbatan neytrallik kasb etadi, yaʼni belgi-xususiyatlar ifodasiga koʻra oraliq holatda turadi. Shoir qizil rangiga eng yaqin variant sifatida arabcha tarixiy etimologik qatlamga xos **ol** hamda eroniy etimologik qatlamga oid **surx** soʻzlaridan ham foydalanganligini kuzatamiz. Jumladan,

*Bir qadah **may** birla boʻldi surxroʻ ahli xumor,*

*Kun aro goʻyoki mahlul aylamish xammor **laʼl**.*

Baytdagi **may, laʼl** soʻzlari ham, **surx** soʻzi ham qizil maʼnosini bermaqda, yaʼni “Ahli mushtoq bir qadah qizil mayni ichib yuzlari surx (qizil) boʻldi, goʻyoki laʼl (qizil rangli qimmatbaho tosh)ga aylanishdi”.

*Chu yozding subhigʻa yorliq bosargʻa **ol** tamgʻasin,*

*Shafaqdin hal qilib **shingarf** qilding, mehrdin xotam* [Navoiy, 2006: 211].

Baytda qizil rang-tusining yana uch variant qoʻllanilgan.

*Boʻldi yer qonlari bila **gulfom**,*

Koʻrki, gul faslidur ne xush ayyom.

*Doʻstlar gʻarq **gul** aro to farq,*

*Yana dushman bu navʻ **gul** aro gʻarq* [Navoiy, 2011: 555].

Keltirilgan masnaviy shakllaridagi **gul** soʻzi ham qizil rang maʼnosida qoʻllanilgan. Yaʼni “Doʻstlar **gul**ga gʻarq edilar (atroflari gul, bahor edi), dushmanlari ham **gul**ga gʻarq yotardi (ammo farqi shu ediki, ular (dushmanlar) gʻarq boʻlgan “gul”– qizillik ularning oʻz qonlari edi)”. Shoir iychom sanʼatidan ustalik bilan foydalana olganligi tahsinga sazovor.

Tahlilga tortilgan misollarda qoʻllanilgan barcha oʻzlashma qatlamga xos sariq, qizil ranglarini ifodalovchi soʻzlar belgining ortiqqligini koʻrsatish uchun xizmat qilgan. Demak, sifatning orttirma darajasi leksik usul bilan, shuningdek, oʻzga tillarga oid leksik birliklar orqali ham namoyon qilingan. Shoir Alisher Navoiyning soʻz maʼnosini juda teran mushohada etishi va ulardan nazmiy javohirlarida oʻrinli hamda taʼsirchan foydalana olishi kitobxonni qayta-qayta hayratga solaveradi. Shoir qizil, alvon, ol maʼnolarini beruvchi *lavn, humrat* soʻzlarini arab tilidan, forsiy tildan *may, laʼlgun, maygun, lolagun, lolavor*; turkiydan *lolazor, lolayuz, shafaqrang* birliklarini olib qoʻllaydiki, bu shoirning boshqa tillarni ham oʻz ona tilidek oʻzlashtirganini dalillaydi.

Hazrat mir Alisher Navoiy o'z asarlarining serjilo, purma'no va uslubiy jihatdang rang-barangligini ta'minlash uchun rang-tus ma'nosini beruvchi so'z variantlaridan ham unumli va o'rinli foydalana olgan. Bu esa, so'z variantlarining ifoda imkoniyati belgining ortiqqligini ko'rsatib berishga xizmat qilishi bilan birga, uslubiy rang-baranglikni ham ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. Наводируш-шабоб. 8-том. –Тошкент, 2006.
2. Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдли. Еттинчи жилд.–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 469-668.
3. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (ибораат аз 2 ҷилд) Ҷ. 1 А — Н (нашри дувум)/ Таҳрир: С. Назарзода, А. Сангинов, С. Каримов, М. Ҳ. Султон/. – Душанбе 2010.
- 4.Yuldasheva D.N. Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – 73 b.
- 5.Yuldasheva D.N. Sukut nutqiy muloqot komponenti. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 164 b.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – Б.277.

**ALISHER NAVOIY VA O'ZBEK TILINING BOYITILISHI:
ILMIY METODLAR VA USLUBLAR**

Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi
ToshDO'TAU doktoranti

Alisher Navoiy nafaqat buyuk adib, balki o'zbek tilshunosligining peshqadamlaridan biri sifatida ham tanilgan. Uning lug'atshunoslik faoliyati o'z davri uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek tilining rivojiga, boyishiga, uning imkoniyatlarini o'rganish va mukammallashtirishga katta hissa qo'shgan. Navoiy lug'atshunoslikka oid bir qator ishlarni amalga oshirgan va uning asarlarida tilning mukammal tizimini yaratish maqsadida juda ko'p ilmiy metodlar va uslublar qo'llanilgan.

Ularning ba'zilarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Leksikologik metod

Navoiy asarlarida so'zlar va ularning ma'nolarini chuqur tahlil qilish, so'zlarning semantik o'zgarishlarini aniqlash leksikologik metodning asosini tashkil etadi. U turli so'zlarning bir-biriga yaqin yoki o'zaro bog'liq ma'nolarini aniqlashga alohida e'tibor qaratgan. Bu metod orqali Navoiy lug'atni boyitishda sinonimlar va antonimlardan keng foydalanib, turli obrazlarni yaratishda yuksak badiiy mahoratni namoyon qilgan. Misol sifatida, Navoiy "Xamsa" asarida ba'zi so'zlarni turli ma'nolarda ishlatgan. U "sevgi" so'zining sinonimlarini kiritish orqali o'zbek tilining leksik boyligini oshirgan. Navoiy bu so'zlarni poetik ifodalarda yangi ma'no qatlamlari bilan ishlatgan va ularning badiiy quvvatini oshirgan.[Azimov, 2010: 45]

Sintaktik metod

Navoiy asarlarini tahlil qilishda sintaktik metod ham muhim o'rin tutadi. Shoir o'z asarlarida sintaktik tuzilmalarning nozik o'zgarishlarini qo'llagan, bu orqali tilning tarkibiy qismlarini yangi va murakkab tarzda shakllantirgan. U she'rlarida so'zlarni turli

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	596
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	598
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	601
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	604
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	607
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	609
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	613
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	615
MUNDARIJA	618

Ilmiy nashr

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga 01. 02. 2025-yilda ruxsat etildi
Bichimi 21,0x29,7. Ofset qog'ozi. "Cambria
garniturası. Hisob-nashr tabog'i 37,5 b.t.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 30.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.
+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01

